

DUAL TA'LIM YO'NALISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Yusupova Sayyora Xasanovna
Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabi
maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dual ta'lim tizimi, shu bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar, Shayxontohur tuman politexnikumidagi sharoitlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: dual, ta'lim, tizim, islohot, yangilik, maktab, o'quvchi, o'qituvchi, pedagogik mahorat.

Mamlakatimizda Dual ta'lim yo'nalishida olib borilayotgan ishlar, keng ko'lamli islohotlarning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun hisoblanadi. Dual ta'lim yo'nalishidagi qulayliklar o'quvchilar uchun imkoniyatlar eshigidir. Chunchi haftada 3 kun umumta'lim fanlarga oid bilimlarni o'zlashtirsa, qolgan 3 kunida o'z yo'nalishiga tegishli bo'lgan sexlarda, korxonalarda amaliyot o'taydilar. Shayxontohur tuman politexnikumida dual ta'lim tizimidagi o'quvchilar muntazam ravishda yangiliklar, olib borilayotgan islohotlar yuzasidan boxabar etib boriladi, ular uchun davra suhbatlari tashkil etib boriladi.

Dual ta'lim tizimi — ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyati yaratiladi.

2022-yilda mamlakatimizda dual ta'lim tizimi Germaniya tajribasi asosida rivojlantirilishi belgilangan edi. Loyiha qiymati 7 mln. yevroni tashkil etib, tizimni isloh qilish va modernizatsiyalash ko'zda tutilgan. 4 yildirki mamlakatimiz oliy va professional ta'limida o'qitishning dual tizimi qo'llab kelinadi. Ushbu yo'nalishda OKMK ham ishtirok etib, 40 dan oshiq ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bunda talabalar va o'quvchilarning ta'lim jarayonlari ishlab chiqarish bilan bog'langan holda olib boriladi.

Yurtimizga Dual ta'lim yo'nalishining kirib kelishiga sabablar quyidagicha: Hammamizga ma'lum, iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'рни alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi.

Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

“Dual” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi. Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega.

– **Ushbu tizim mamlakatimizda qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinmoqda?**

– O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, “Dual ta'lim” ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lim bo'yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. bugungi kunda dual ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jonmatova O. Yusuf Xos Hojibning ta'lim – tarbiya to'g'risida. T.: —O'qituvchi, 1980.
2. Niyozev G, Axmedova.M Pedagogika tarixidan seminar. —Noshir, Toshkent, 2011.
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: — Fan va texnologiya, 2015.
4. Mullaboyeva N. Kasbiy pedagogika. Namangan, 2019.